


## II. SANOAT

### Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022-yil yanvar-dekabr)



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 22 814,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 68,2 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2364,7 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 10,4 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 97,9 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirdorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 3027,8 mlrd. so‘m miqdorida (101,0 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 15549,9 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 68,2 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 5429,6 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 23,8 %), suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 122,7 mlrd. so‘m (0,5 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 1712,6 mlrd. so‘m (7,5 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoat (68,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi  
va o'sish sur'ati**



**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>		<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

<b>18 771,9</b>	<b>22 814,7</b>	<b>110,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
-----------------	-----------------	--------------	--------------	--------------

*iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:*

<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>2 079,4</b>	<b>1 712,6</b>	<b>61,6</b>	<b>11,1</b>	<b>7,5</b>
---	----------------	----------------	-------------	-------------	------------

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari	128,7	146,2	108,1	0,7	0,6
--------------------------------------	-------	-------	-------	-----	-----

<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>12 131,1</b>	<b>15 549,9</b>	<b>110,5</b>	<b>64,6</b>	<b>68,2</b>
------------------------------	-----------------	-----------------	--------------	-------------	-------------

*undan:*

Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	2 720,6	3 144,4	110,3	14,5	13,8
---	---------	---------	-------	------	------

To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4 206,6	6 038,2	137,4	22,4	26,5
--	---------	---------	-------	------	------

Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	25,6	31,8	145,0	0,1	1,0
--	------	------	-------	-----	-----

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	8,0	5,0	60,6	-	-
---	-----	-----	------	---	---

*davomi*


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>		<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3 706,5	4 430,6	98,6	19,7	19,4
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	64,3	76,1	108,3	0,3	0,3
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	0,1	7,3	97,7	-	-
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,8	1,0	27,6	-	-
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	411,2	730,2	153,0	2,0	3,2
Metallurgiya sanoati	110,5	22,5	21,8	0,6	0,1
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	90,8	87,2	64,2	0,5	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,8	93,7	103,6	-	0,4
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	2,4	4,4	154,7	-	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	19,6	13,0	63,6	0,1	0,1
Mashina va uskunalar ta’mirlash va o’rnatish	20,6	8,9	39,4	0,1	-
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	8,9	3,7	32,1	-	-
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’mirlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>4 416,6</b>	<b>5 429,6</b>	<b>115,7</b>	<b>23,5</b>	<b>23,8</b>
<b>Suv bilan ta’mirlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>144,8</b>	<b>122,7</b>	<b>87,7</b>	<b>0,8</b>	<b>0,5</b>

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1712,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,5 foizini tashkil etdi.


Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha Tabiiy gaz olish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63,9 foizga, gaz kondensati 25,7 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)**

**2021- yil yanvar-dekabr**



**2022- yil yanvar-dekabr**



### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)**

o'chov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2021- yilga nisbatan, % hisobida
	2021- y.	2022- y.	

#### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Xom neft	ming tn.	26,1	20,4	78,1
Shag'al	ming tn.	35,1	40,4	115,1
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	17,2	24,6	142,9

	<i>o'chov birligi</i>	<i>yanvar-dekabr oylarida</i>		<i>davomi 2021- yilga nisbatan %, hisobida</i>
		<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	

### **Qayta ishslash sanoati**

Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirit</i>	2556,9	2865,5	112,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	145,8	116,0	79,6
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalarini (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	4973,0	3797,2	76,4
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	94,5	74,6	79,0
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	106,0	104,4	98,4
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	6392,0	4602,5	72,0
Mashina yoki qo'lda to'qilgan tirkotaj polotnolar	<i>tn.</i>	2226,0	2335,0	104,9
Paxtadan yigirilgan ip	<i>ming tn.</i>	40,4	51,6	127,9
Kaliy xlorid	<i>ning tn.K2O</i>	197,4	197,8	100,8
Polietilen	<i>ming tn.</i>	135,2	127,4	94,2

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	13297,7	8430,8	63,4
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	3214,9	3220,2	100,2

	o‘lchov birligi	yanvar-dekabr oylarida		2021- yilga nisbatan, % hisobida
		2021- y.	2022- y.	

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	mln. so ‘m	92133,8	93968,6	102,0
---	------------	---------	---------	-------

Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mln. so ‘m	11359,7	14420,6	126,9
--	------------	---------	---------	-------

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 549,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 110,5 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 21,5 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 4,5 foiz va quyi texnologiyali 48,5 foizni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan shag‘al 11,5 foizga, paxtadan yigirilgan ip 12,8 foizga oshgan bo‘lsa, xom neft ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 21,9 foizga, tozalangan paxta yog‘i 23,6 foizga, paxta tolasi 21,0 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 429,6 mld. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 23,8 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,7 mld. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 10,2 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 12,6 foizga oshganligi kuzatildi.

### **Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 4 763,1 mld. so‘mlik iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 2744,1 mld. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (107,7 foiz), 134,4 mld. so‘mlik vino-aroq mahsulotlari (120,1 foiz) va 1884,6 mld. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 110,2 foiz) ishlab chiqarildi.


### **Yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**

	<i><b>mldr. so‘m</b></i>		<i><b>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</b></i>	
	<i><b>2021- y.</b></i>	<i><b>2022- y.</b></i>	<i><b>2021- y.</b></i>	<i><b>2022- y.</b></i>
<b>Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish</b>	<b>4 369,5</b>	<b>4 763,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>


*shu jumladan:*

oziq-ovqat tovarlari	2658,9	2878,5	60,9	60,4
nooziq-ovqat tovarlari	831,8	790,0	39,1	39,6

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish tarkibi,  
jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida**




**Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
(jamiga nisbatan ulishi )**

Viloyatni sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Nishon tumani (jami ishlab chiqarish hajmining 22,9 %), G‘uzor (15,4 %), Qarshi shahri (15,3 %), Qarshi tumani (7,7 %), Dehqonobod (5,9 %), Koson (4,1%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, iste’mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (jami iste’mol tovarlari hajmining 25,0 %), Yakkabog’ (10,0 %), Shahrisabz shahar (7,7 %), Koson (7,3 %), Chiroqchi (6,0 %) va Kitob (5,8 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

*(viloyat bo‘yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)*




**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari**

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste’mol tovarlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>22 814,7</b>	<b>100,0</b>	<b>4763,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	3 480,4	15,3	1188,6	25,0
Shahrisabz sh.	427,1	1,9	368,8	7,7
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	3 506,4	15,4	228,0	4,8
Dehqonobod	1 356,5	5,9	140,4	2,9
Qamashi	657,6	2,9	194,5	4,1
Qarshi	1 745,5	7,7	218,4	4,6
Koson	939,8	4,1	345,5	7,3
Kitob	685,4	3,0	274,6	5,8
Mirishkor	599,9	2,6	196,6	4,1
Muborak	628,5	2,8	105,9	2,2
Nishon	5 222,4	22,9	241,2	5,1
Kasbi	1 664,7	7,3	116,6	2,4
Ko‘kdala	126,2	0,6	122,0	2,6
Chiroqchi	542,5	2,4	284,7	6,0
Shahrisabz	441,1	1,9	261,2	5,5
Yakkabog’	790,6	3,5	476,3	10,0

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va  
iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish**

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so‘m</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste'mol tovarlari</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6 621,7</b>	<b>1 382,4</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	12 154,4	4150,8
Shahrisabz sh.	2 970,4	2564,7
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	16 324,4	1061,4
Dehqonobod	8 768,6	907,4
Qamashi	2 318,1	685,5
Qarshi	6 652,3	832,3
Koson	3 121,7	1147,6
Kitob	2 503,7	1002,9
Mirishkor	4 781,8	1566,8
Muborak	6 900,3	1163,1
Nishon	32 441,6	1498,0
Kasbi	8 074,3	565,5
Ko‘kdala	702,6	679,3
Chiroqchi	2 099,7	1101,9
Shahrisabz	1 923,3	1139,1
Yakkabog‘	2 886,7	1739,0

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari,  
ming so‘mda**



**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar  
va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish**

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 773,1 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o‘sishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

**Mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>2021 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	101	83
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	55	42
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so ‘m</i>	1144,8	773,1
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	6,6	0,8
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	240	646

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3423,7 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo‘shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 15,0 foizni tashkil etdi.